

**OILADA SODIR ETILADIGAN JINOYATLARGA BARHAM BERISH
MASALALARI**

Djumayeva Gulhayo

Kamiljonovna Fuqarolik ishlari
bo'yicha Shayxontohur tumanlararo
sudyasi
e-mail: djumaevagulhayo@gmail.com

Annotatsiya: Oila muqaddas dargoh hisoblanadi, bunga jiddiy e'tibor qaratmay yoxud ushbu muqaddaslikni his qilmasdan zo'rovonlarcha harakat qilish holatlari mamlakatimizda sezilarli ravishda ko'payib bormoqda. Ushbu maqolada oilaviy zo'ravonlik shakllari, ularning sabablari, ular keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlar, amaliyotdan tirik misollar, bunga barham berish yo'lidagi istiqbolli rejalar va ularning normativ-huquqiy manbalari hamda bu boradagi xorij davlatlari tajribasi batafsil yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: oila instituti, oiladagi zo'ravonliklik, viktimologiya, geoinformasion xarita, kriminogen hududlar, og'ir sharoitda yashayotgan ayollar, himoya orderi.

Mamlakatimizda oila institutining juda uzoq tarixga egaligi, uning jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasida oiladagi zo'ravonliklarning oldini olishda jinoyat-huquqiy normalarni qo'llashni amalda yo'lga qo'yish, oiladagi zo'ravonlikning profilaktikasida fuqarolik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda mulkiy huquqlarini ta'minlash borasidagi muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish naqadar dolzarb vazifa ekanligi ayon bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda 2020-yilda respublika miqyosida 62 081 ta jinoyat qayd etilgan bo'lib, 100 ming aholiga nisbatan o'rtacha 182,4 tadan to'g'ri kelgan. 2020 yilda qayd etilgan qotillik

jinoyatlarining har uchinchi (143 tasi, 35,2%), og'ir tan jarohati yetkazish jinoyatlarining 192 tasi (20,5%) oila-turmush munosabatlari doirasida sodir

etilgan.¹ Og'ir sharoitda yashayotgan ayollarning muammolari hal etilmasligi oqibatida 2020 yilda 5 774 nafar xotin-qiz 5 520 ta jinoyat sodir etgan. Xususan, oila-turmush doirasida tazyiqqa uchragan xotin-qizlarning 14 774 nafariga "himoya orderi" berilgan bo'lsa, shundan 317 ta holatda ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortilgan.² Bu raqamlardan ko'rinib turibdiki, oila asosiy qadriyat va an'analardan biri hisoblangan bu mamlakatimizda uning qadri yo'qolib bormoqda, aka ukaga, uka akaga, er-xotin farzanlarini ham o'ylamay bir-biriga, farzandlar ham o'zaro raqibdirlar go'yoki, kelin va boshqa oila a'zolar o'rtasidagi munosabatlarni gapirma ham bo'ladi. Xalqni boshqa bir omil emas, o'zi yo'q qiladi, aslida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning: "Oilalarda nosog'lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o'z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda" degan fikrlari mavzuning qanchalik dolzarb ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi.³

Shuningdek, 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham "Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash" belgilanganligi mazkur sohani tadqiq etish zarurati mavjudligidan dalolat bermoqda.⁴ Ya'ni bundan tushunish mumknki, oilaiy zo'ravonlik deganda aksariyat insonlar ayollarga qilinadigan zulmni tushunishadi, to'g'ri bu albatta, lekin oilaviy zo'ravonlik tushunchasi bundan ham kengroq talqin qilinadi. Misol

tarzida keltiradigan bo'lsak farzandga qilinadigan zulm ham oilaviy zo'ravonlik sifatida baholanishi mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asl mohiyatida inson va uning manfaatlari ustun hisoblanadi, maqsadga erishishda esa oilaning o'rnida esa beqiyosdir. Jamiyatdagi har qanday illatga qarshi kurashni oiladan boshlasakkina uni ildizi bilan quritish mumkin. Zero, *O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 63-moddasida* muvofiq, oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. *Konstitusiyaning 26-moddasida* esa, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Inson huquqlariga oid qator xalqaro hujjatlarda ham shaxsning barcha huquq va erkinliklarga ega bo'lishi, shuningdek kamsitish, zo'ravonlik, hech kimning qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni xo'rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kabi qoidalar mustahkamlab qo'yilgan.

Oiladagi zo'ravonlik jinoyat-huquqiy sohaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. S.Niyozova zo'rlik tushunchasiga quyidagi ta'rifni taklif qiladi: zo'rlik – bu jabrlanuvchi xavfsizligiga qasddan, qonunga xilof ravishda jinoiy tajovuz qilish, uning organizmiga (organlari, to'qimalari va ularning fiziologik funksiyalari) irodasiga qarshi (yoki undan tashqari) jismoniy (energetik) yoki ruhiy (informasion) ta'sir etish yo'li bilan jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazish.⁵ Aytish joizki, ushbu zo'ravonliklar deyarli aynan oilada sodir etilib, insonning ixtiyori va erkiga zid ravishda jismoniy kuch ishlatish yoxud ruhiy ta'sir etish orqali amalga oshiriladi. Shaxsga zo'rlik ishlatilishida uning ixtiyoriga zid bo'lgan xatti- harakatlar amalga oshiriladi. Oiladagi zo'ravonlikning tarqalishi

haqidagi sotsiologik ma'lumotlar, aslida, mentalitetga ko'ra haqiqatga to'g'ri kelmaydi deb hisoblanadi chunki bu muammo kamdan-kam hollardagina oiladan tashqariga olib chiqiladi. Bundan tashqari, oiladagi zo'ravonlik ijtimoiy noqobil oilalardagina uchraydi, degan fikr butkul noto'g'ri, deb hisoblaymiz. Chunki bu muammo aholining barcha ijtimoiy tabaqalari uchun xos bo'lib, ijtimoiy noqobil oilalardagi

zo'ravonlik holati ommaga ko'proq oshkor bo'ladi xolos, qolganlari sirligicha qolaveradi.

Oilaviy o'ravonlikning ham bir necha shakllari mavjud, jumladan:

- *Jismoniy zo'ravonlik* – turli darajadagi og'irlik darajasida qasddan jismoniy zarar yetkazish;
- *Jinsiy zo'ravonlik* – inson tanasidan qasddan jinsiy obyekt sifatida foydalanish;
- *Psixologik* (xulq-atvor, intellektual, emotsional va boshqa) *zo'ravonlik* – shaxs (bola yoki kattalar)ni obyekt sifatida qasddan manipulyatsiya qilish, uning erkinligi, qadr-qimmati va huquqlarini psixik jihatdan haqorat qilish;
- *Iqtisodiy zo'ravonlik* – bu oilaning moliyaviy va boshqa resurslarini nazorat qilish, keskin vaziyatni yaratish uchun oilaviy mablag'larni qasddan sovrish kabilar.

Oiladagi zo'ravonlik shaxsga qarshi noqonuniy kuch ishlatish, kaltaklash, zo'rqlash, majbur qilish, ta'sir ko'rsatish, o'z hukmronligini o'tkazish kabi belgilar orqali ifodalanadi. U asosan jismoniy yoki ruhiy shaklda bo'ladi. Ruhiy zo'ravonlik

esa ko‘p hollarda qo‘rqitish (bir shaxsni ikkinchi bir shaxs tomonidan qo‘rqitib bo‘ysundirish, o‘zini ko‘rsatish yoxud o‘ziga qaram qilish) shaklida ifodalanadi. Jismoniy zo‘rlilik jabrlanuvchiga turli darajada tan jarohatlari yetkazish, urish, jismoniy kuch ishlatish, jabrlanuvchining qarindoshlarini, yaqinlarini o‘ldirish, nomusiga tegish va hokazolar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.⁶ Bunda oilaning bir a‘zosi tomonidan boshqa a‘zosiga nisbatan qasddan uning hayoti, sog‘lig‘iga yoki badanining turli joylariga shikast yetkazish kabi xatti- harakatlar sodir etilib, quyidagi ko‘rinish larda namoyon bo‘ladi: shapaloq tortish, tepish, turtkilash, musht bilan urish, kuchli zarb bilan itarib yuborish, turli o‘tkir buyum va narsalarni otish, qurol bilan xavf solish yoki yaralash, uydan chiqishiga jismonan yo‘l qo‘ymaslik, kechasi uxlashga qo‘ymaslik. Ruhiy zo‘rlilik – jabrlanuvchiga nisbatan jismoniyzo‘rlilik ishlatish, mol-mulkini nobud qilish yoki zarar yetkazish va jabrlanuvchi sir saqlanishini istagan ma‘lumotlarni oshkor etish va hokazolar bilan qo‘rqitish. Ruhiy zo‘rlilik va jismoniy zo‘rlilik bir-birini taqozo

etuvchi va biri ikkinchisini to‘ldirgandagina oqibat kelib chiqishi mumkin. Garchi ko‘pchilik jismoniy zo‘ravonlik holatini og‘irroq deb baholagani bilan biz uchun ruhiy zo‘ravonlik juda xatarlidir, chunki jismoniy og‘riqlar tez namoyon bo‘ladi va aksariyat hollarda tuzalib ketadi, lekin ruhiy zulm natijasida ko‘rilgan ma‘naviy zarar qachon o‘z ifodasini ko‘rsatishi noma‘lum va bu zarar inson hayotini butun umr zaharlab turadi. IIV rasmiysi Umida Abdullayevining ma‘lumot berishicha: “Xotin-qizlar ko‘proq ruhiy zo‘ravonlikka uchrashmoqda”. Ularning 86-87 foizi oilalarda kuzatilayotganligi qayd etilgan.⁷

Oiladagi jinoyatlar zamirida, odatda, oila a‘zolari o‘rtasidagi ichki janjal yoki oila a‘zolari va u yashaydigan muhit o‘rtasidagi janjal yotadi. Bugungi kunda oiladagi jinoyatlar orasida xotinga (erga) qarshi zo‘rlilik ishlatib sodir etiladigan

SJIF: 5.051

jinoyatlar va farzandkushlik ayniqsa mufassil o'rganilgan. Ma'lumki, jinoyat qonunchiligida "Oiladagi zo'ravonlik" jinoyati mavjud emas. Yuqorida qayd etilganidek oiladagi zo'ravonlik bu ijtimoiy-huquqiy tushuncha hamda ijtimoiy-huquqiy muammo. Qayd etish kerakki, oiladagi zo'ravonlikda ifodalanadigan qilmishlar subyektiv tomondan aybning to'g'ri qasd shaklida amalga oshiriladi. Shuningdek, uning motivi rashk, o'ch olish, jinsiy ustunlikni namoyon etish kabi motivlar bilan sodir etiladi. Tahlillarga asoslanib aytilish mumkinki, oiladagi nosog'lom muhit ta'siri :

- *birinchidan*, oilada turli nizo va kelishmovchiliklarning kelib chiqishiga;
- *ikkinchidan*, inson tarbiyasida xato va kamchiliklarning yuzaga kelishiga;
- *uchinchidan*, shaxsda salbiy xususiyatlarning shakllanishiga;
- *to'rtinchidan*, oilada oila a'zolari va qarindosh-urug'lar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning buzilishi yoki yomonlashishiga;
- *beshinchidan*, oilalarning barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Shu o'rinda aytilish kerakki, jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash maqsadida 2021 yil 26 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat

SJIF: 5.051

jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda ichki ishlar organlari xodimlarining zamonaviy qiyofasini yaratish, ularning mas'uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish, jinoyatchilikning yangi ko'rinishlariga qarshi kurashish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish hamda sohani to'liq raqamlashtirishga erishish vazifasi belgilangan.

Xorij tajribasi qanday?

Dunyoning ba'zi davlatlarida karantin oqibatida oilaviy zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha turli choralar qo'llanilgan. Jumladan, Fransiyada karantin sababli o'rtacha 35% ga oshganligi ma'lum qilingan. Mamlakat bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari sotiladigan do'konlarda zo'ravonlik holatlarida yordam ko'rsatuvchi 20ta maslahat markazi ochilgan. Shuningdek, hukumat oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash uchun 1 mln yevro mablag' ajratgan. Jabrlanuvchilar mehmonxonalarda yashashi uchun mehmonxona xarajatlarining qoplab berilishini bildirgan. Jabrlanganlar tomonidan sms xabar yuborilishi uchun mo'ljallangan alohida SMS- xizmati tashkil etilgan.⁸ Italiya hukumati tomonidan jabrlanganlarga yordam beruvchi “YouPol” mobil dasturi joriy etildi. Mazkur dastur jabrlanganlarga qo'ng'iroqsiz yordam berishga mo'ljallangan.⁹

Ma'lumki, mamlakatimizda shaxs oilada zo'ravonlikka duch kelsa, uning hayotiga xavf tug'ilganida birinchi navbatda ichki ishlar tizimining 102 qisqa

raqamiga xabar beradi. Lekin, ichki ishlar organlari faoliyatida qo'llanilayotgan 102 tizimi ma'nau eskirgan, murojaatlarni qabul qilishda tizimli ravishda texnik uzilishlar bilan ishlaydi, ma'lumotlarni to'ldirish va yuborishga ko'p vaqt talab etiladi. Ma'lumot uchun aytish kerakki, navbatchilik qismiga

SJIF: 5.051

kuniga oʻrtacha 20-50 ta xabar kelib tushadi. 102 tizimida murojaatlar faqat telefon qoʻngʻirogʻi orqali qabul qilinadi, murojaat etishning alternativ shakllaridan foydalanilmaydi. Jumladan, nogironligi boʻlgan shaxslar (soʻzlash, koʻrish va eshitish)ning jinoyat haqida xabar berishiga imkoniyat yaratilmagan. Bu esa oiladagi zoʻravonliklar haqida kechiktirib boʻlmas holatlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga oʻz vaqtida xabar berishga monelik qiladi. Shu nuqtai nazardan “102 tezkor chaqiruv xizmati” faoliyatini takomillashtirish, jumladan, chaqiruvning muqobil variantlarini qoʻllash, xorijiy tajriba asosida “Qoʻshni nazorati” tizimini joriy qilish, oiladagi zoʻravonlikka qarshi kurashish va uning profilaktikasini amalga oshirishga faol koʻmaklashayotgan aholi vakillarini moddiy-maʼnaviy ragʻbatlantirish tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

raqamiga xabar beradi. Lekin, ichki ishlar organlari faoliyatida qoʻllanilayotgan 102 tizimi maʼnan eskirgan, murojaatlarni qabul qilishda tizimli ravishda texnik uzilishlar bilan ishlaydi, maʼlumotlarni toʻldirish va yuborishga koʻp vaqt talab etiladi. Maʼlumot uchun aytish kerakki, navbatchilik qismiga kuniga oʻrtacha 20-50 ta xabar kelib tushadi. 102 tizimida murojaatlar faqat telefon qoʻngʻirogʻi orqali qabul qilinadi, murojaat etishning alternativ shakllaridan foydalanilmaydi. Jumladan, nogironligi boʻlgan shaxslar (soʻzlash, koʻrish va eshitish)ning jinoyat haqida xabar berishiga imkoniyat yaratilmagan. Bu esa oiladagi zoʻravonliklar haqida kechiktirib boʻlmas holatlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga oʻz vaqtida xabar berishga monelik qiladi. Shu nuqtai nazardan “102 tezkor chaqiruv xizmati” faoliyatini takomillashtirish, jumladan, chaqiruvning muqobil variantlarini qoʻllash, xorijiy tajriba asosida “Qoʻshni nazorati” tizimini joriy qilish, oiladagi zoʻravonlikka qarshi kurashish

va uning profilaktikasini amalga oshirishga faol ko'maklashayotgan aholi vakillarini moddiy-ma'naviy rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa: Yuqorida qayd etilganlarga ko'ra Bosh qomusimizda nafaqat jinoiy tajovuzning boshlanishi, balki tajovuzning o'ziyoq eng og'ir jinoyat sifatida belgilanishi inson huquq va erkinliklari, xususan, insonning yashash huquqini konstitusiyaviy maqomda muhofaza qilishga xizmat qiladi. Ma'lumki hayotga bo'lgan huquq har bir insonning uzviy huquqidir, nima uchun boshqa bir inson uning ushbu huquqini cheklashi yoki tugatishi kerak? Nima uchun oilada ayollar, bolalar zo'ravonlikka uchrashlari va bu haqida bevosita tegishli organga murojaat qila olmasliklari kerak? Bular adolatsizlikdan boshqa narsa emas. Shunday ekan, murojaat tizimini takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish lozim. Shuningdek, hozirda oilaviy zo'ravonlik holarti kuzatilgan oilalarni yarashuv muddatisiz ajratish masalasi ham qonun loyihasiga muhokamaga qo'yilgan va bu tasdiqlanadigan bo'lsa adolatli bo'lar edi, deb hisoblaymiz, sababi zulm ostida majburan yashash insoniyparvarlik prinsipga mos kelmaydi hamda bunday zulmlarning beixtiyor guvohi bo'lish bolaning ruhiyatiga, buning oqibatida esa kelajagiga salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. // Xalq so'zi. –T., 2017 yil, 16 iyun.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi//Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF–60- son “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichg

III.

Adabiyotlar

1. Niyozova S.S. Shaxsga qarshi zo‘rluk ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik nazariyasi (Monografiya). – T.: TDYuI, 2011. – B. 22.
2. M.X. Rustambaev. Jinoyat huquqi: Maxsus qism.. T.: TDYuI, 2006. – B. 42

IV.

Internet manbalari

1. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. <https://qalampir.uz/uz/news/uzbekistonda-%D2%B3ar-oltinchi-suitsidga-oilaviy-mozharo-sabab-bulmok-da-34870>

3. <https://yuz.uz/>.
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/16/women/>
5. <https://resourcehub.bakermckenzie.com/en/resources/fighting-domestic-violence/europe/france/topics/legal-provisions>
6. <https://www.eucpn.org/document/italian-policy-on-domestic-violence>
7. https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/12/violence/?utm_source=push&utm_medium=telegram
8. <https://kun.uz/06899921>